

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.I.157.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YORQULOV UMIDJON MUZAFFAR O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISLOMIY MOLIYA
INDUSTRIYASINING QO‘LLAB-QUVVATLOVCHI INFRATUZILMASINI
SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Yorqulov Umidjon Muzaffar o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasida islomiy moliya industriyasining qo‘llab-
quvvatlovchi infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish..... 3

Ёркулов Умиджон Музаффар угли

Формирование и развитие поддерживающей инфраструктуры
индустрии исламских финансов в Республике Узбекистан 26

Yorqulov Umidjon Muzaffar ogli

Formation and development of supportive infrastructure for islamic finance
industry in the Republic of Uzbekistan 52

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.I.157.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YORQULOV UMIDJON MUZAFFAR O'G'LI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISLOMIY MOLIYA
INDUSTRIYASINING QO'LLAB-QUVVATLOVCHI INFRATUZILMASINI
SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.4.PhD/Iqt4710 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nordicuniversity.org) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Salimov Baxtiyor Tadjiyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Tursunov Anvar Sultonovich iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent Tolipova Baxtigul Farxadovna iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Xalqaro Nordik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.I.157.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ kuni soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100143, Toshkent shahri, Sebzor ko'chasi, 22A uy, 2-bino 1-qavat. Tel.: (95) 505-44-00, Faks: (95) 505-33-00.

Dissertatsiya bilan Xalqaro Nordik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100143, Toshkent shahri, Sebzor ko'chasi, 22A uy, Tel.: (95) 505-44-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «___» _____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi.)

Sh.I. Mustafakulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

M.K. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.f.d. (PhD), professor

B.T. Salimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiy rivojlanishning global tendentsiyasi yangi moliyaviy resurslarni jalb qilish va safarbar etish zarurligini ko'rsatmoqda. Muqobil moliya tizimi sifatida islom moliyasi jahon arenasida jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu soha 50 yil oldin vujudga kelgan bo'lsa-da, 1975 yili faoliyat yuritgan bitta islomiy moliya muassasasi soni 2023 yilga kelib 1679 taga yetdi. 2023 yilga kelib, global islomiy moliyaviy aktivlar 4,9 trillion AQSH dollari miqdorida baholanmoqda¹. Islom moliyasiga bo'lgan qiziqish va uning ahamiyati hatto musulmon bo'lmagan mamlakatlarda ham yil sayin ortib bormoqda, va hukumatlar bu tizimni o'z mamlakatlari moliya sektorida joriy etishga intilmoqdalar. Shunga qaramasdan, ayrim davlatlarda islomiy moliya sanoati uchun zarur infratuzilmaning yetishmasligi tufayli, Islom moliyasi milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirishda o'z salohiyatini to'liq namoyon eta olmayapti. Shu boisdan, islomiy moliya bozorini barqaror rivojlantirish uchun birinchi navbatda muvofiq qonunchilik bazasi va soliq rejimini joriy etishdan boshlanadigan qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon hamjamiyatida islom moliyasi uchun tegishli normativ-huquqiy bazani shakllantirish, islom kapital bozorini yaratish, islomiy fintex mahsulotlarini ishlab chiqish va tartibga solish, islom bank faoliyatini islom axloqiy iqtisodiyotining maqsadlariga muvofiqlashtirish, shuningdek, islom moliya sektori raqobatbardoshligini an'anaviy moliya sektorlariga nisbatan oshirish yuzasidan izlanishlar olib borilmoqda. Islom moliyasi yangi bozorlarga kirib bormoqda va 2022-yilda dunyodagi 47 ta davlat kamida birta islomiy moliyaga oid qonun hujjatini qabul qilgan². Shu sababli, rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlarining mazkur sohaga bo'lgan qiziqishi, islom moliya bozorini rivojlantirishni rag'batlantirish, fuqarolik huquqi asosidagi yurisdiksiyalarda islom moliyasi uchun infratuzilma yaratish, hamda tartibga soluvchi huquqiy asoslarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekistonda ham islomiy moliya industriyasini rivojlantirishga so'nggi yillarda alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil Parlamentga murojaati davomida islomiy moliyani mamlakat moliyaviy landshaftiga joriy etish zarurligini qayd etib, uning iqtisodiy o'sish va moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash salohiyatini ta'kidlab o'tdi³. Shuningdek, ushbu chaqiriq bir necha vazirliklar tomonidan turli konferensiyalarda qo'llab-quvvatlandi, islomiy moliyaning istiqbollari va uning mamlakat iqtisodiy qarashlariga muvofiq kelishi e'tirof etildi. O'zbekiston hukumati tomonidan 2023-yilda qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida bank sektorini kengaytirish va mamlakatda moliyaviy inklyuzivlikni oshirish maqsadida kamida 3 ta tijorat bankida islomiy bank xizmatlari va mahsulotlarini joriy etish belgilandi⁴. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya industriyasi uchun qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma barpo etilganda islomiy moliyaning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoni yuzaga keladi. Bu esa, o'z navbatida, yangi sohani tashkil etish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda tizimli

¹ Dinar Standard. Report on global Islamic economics 2023/2024.

² ICD&Refinitiv. 2022. Report «Islamic Finance Development Indicator 2022».

³ Kun.uz. 2020 "It is high time to introduce Islamic financial services in Uzbekistan".

⁴ "O'zbekiston - 2030" Strategiyasi

yondashuvni tatbiq etishni talab etadi. Yuqorida tavsiflangan fenomenning dolzarbligi va yangi industriyani rivojlantirish potentsiali ushbu mavzuni tadqiq qilishga asos bo'ldi va ilmiy ish maqsadini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida" PF-158-son, 08.04.2022-yildagi "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida" PF-101-son farmonlari, 05.03.2019-yildagi "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi fondlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish choralari to'g'risida" PQ-4224-son qarori, shuningdek sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tarixan, zamonaviy islomiy moliya tizimi va amaliyotlari Qur'oni Karimga va Sunnati Sharifga asoslangan. Islomiy iqtisodiyot nazariyasining rivojlanishiga dastlabki hissalar Abu Yusuf, Ibn Xaldun, Ibn Qayyum⁵ kabi islom huquqshunoslari va mutafakkirlari tomonidan qo'shilgan.

O'z asarlarini islomiy iqtisodiyot va moliyaga bag'ishlagan, hususan islomiy iqtisodiy modeli tamoyillarini tadqiq qilgan zamonaviy xorijiy olimlar orasida Sayyid Abul-A'la Mavdudiy, Muhammad Nejatulloh Siddiqiy, Muhammad Taqi Usmoniy, Mahmud Amin al-Gamal, Masudul Alam Chudri, Muhammad Umar Chapra, Muhammad Akram Xon, Abbas Miraxror, Mehmet Asutay, Faraz Adam⁶ kabi mualliflarning asarlarini qayd etish mumkin.

MDH davlatlari olimlaridan R.I.Bekkin, A.Yu. Juravlev, M.E.Kalimullina, Yu.D. Magomedova⁷ kabi olimlarning ilmiy ishlarida Islomiy iqtisodiyot modeli,

⁵ Абу Юсуф Якуб б. Ибрахим ал-Куфи. Книга ал-Харадж. — Пер. с арабского и коммент. А. Э. Шмидта; супракоммент. к пер. А. С. Боголюбова; подготовка к изд., вступит. ст. и указ. А. А. Хисматулина. — СПб.: «Петербургское Востоковедение», 2001. — XXXIII + 415 с. («Памятники культуры Востока», XVI); Ибн Халдун. Ал-Мукаддима. Бейрут: Дар ал-Фикр. Книга 1. Составление, перевод с арабского и примечания А.В. Смирнова. Историко-философский ежегодник 2007. М.: Наука, 2008, стр. 159-186.; Islahi, A. 1982. Economic thought of Ibn al-Qayyim. International Centre for Research in Islamic Economics, King Abdulaziz University, Jeddah, Saudi Arabia.

⁶ Mawdudi S. A. First principles of Islamic economics. Book in brief. Centre of Islamic economics - International Islamic University Malaysia. 2020.; Muhammad Nejatullah Siddiqi. Issues in Islamic Banking Selected Papers. The Islamic Foundation. 1983/1403 H. M. Taqi Usmani. 1998. An introduction to Islamic finance. Karachi: Idaratul Ma'arif.; Al-Gamal M. A. 2000. Basic Guide to Contemporary Islamic Banking and Finance. Rice University, Houston; Choudhury M.A. Islamic Economics and Finance: An Epistemological Inquiry. Emerald Group Publishing Limited. 2011.; Chapra M.U. What is Islamic economics? 2nd edition. Islamic Research and Training Institute IsDB. 2001.; Muhammad Akram Khan. Islamic Economics and Finance: A Glossary. 2- edition. Routledge. 2003.; Mirakhor. A. A Note on Islamic economics. Islamic Development bank. 2007.; Mehmet Asutay. 2007. "A Political Economy Approach to Islamic Economics: Systemic Understanding for an Alternative Economic System", Kyoto Bulletin of Islamic Area Studies, Vol. 1, No. 2, (2007) pp. 3-18.; Adam. F. Prophetic Finance and Economics. Amanah Advisors press. 2024.

⁷ Беккин Р.И. Исламская экономическая модель и современность. М.: Издательский дом Марджани. 2009.; Журавлёв А.Ю. Исламский банкинг. Сафра. 2017.; Калимуллина М.Э. Институциональные особенности Исламского бизнеса: опыт и проблемы. Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации. 2011.; Магомедова Ю.Д. Развитие Исламских финансовых институтов в современных условиях. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова. 2017.

islomiy bank faoliyati, islomiy moliya institutlarini rivojlantirish masalalari o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.Z. Abrorov islomiy kapital bozor ekotizimini shakllantirishning uslubiy asoslarini taklif etgan, A.S. Tursunov tijorat banklarida Islomiy bank xizmatlarini rivojlantirish yo‘nalishlarini o‘rgangan, J.M.Imomnazarov O‘zbekistonda islomiy moliyaviy mahsulotlarga bo‘lgan talabni tadqiq qilgan, X.Xasanov islomiy moliya tizimini innovatsion moliyalashtirish mexanizmi sifatida ta‘riflagan, N.Allaberganova islomiy moliya institutlari faoliyatini o‘rgangan. Bundan tashqari, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf bozor munosabatlari, qarz munosabatlariga oid masalalar yechimlarini sharhlab bergan, A.Abdulloh islomda tijorat va ishlab chiqarishga oid tushunchalarni tavsiflab bergan, X.Nusratxujayev bank sohasi xodimlariga mos keluvchi “Mufid” nomli keng-qamrovli o‘quv dasturini ishlab chiqqan, S.Shaamirovalar jahonda oliy o‘quv yurtlari tomonidan taqdim etiladigan islomiy moliyaga oid o‘quv dasturlarini tadqiq qilgan hamda sohaga oid qo‘shimcha adabiyotlarni ishlab chiqishgan⁸.

Biroq, mazkur olimlarning ilmiy ishlari islomiy moliyaviy mahsulotlar taklif etish va islomiy moliya institutlari faoliyatining nazariy, amaliy jihatlariga bog‘liq bo‘lib, islomiy moliya industriyasi uchun qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmaning komponentlari, uni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha kompleks tadqiqotlar o‘tkazilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-5421101758-sonli «Alternativ moliya ekotizimini shakllantirish orqali dualistik tizim milliy modelini ishlab chiqish» mavzusidagi fundamental loyiha (2023-2026-y.y.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida islomiy moliya industriyasining qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

islomiy moliya va an’anaviy moliya o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklarni yoritish;
infratuzilma, moliyaviy infratuzilma, islomiy moliyaviy infratuzilma tushunchalarini tadqiq etish;

⁸ Abrorov S.Z. Перспективы внедрения Сукук – Исламских ценных бумаг в Узбекистане. Научно-исследовательский центр «Научные основы в проблеме развития экономики Узбекистана», автореферат диссертации (PhD) по экономическим наукам, ТГЭУ, 2020: Методологические основы формирования экосистемы Исламского рынка капитала в Узбекистане, автореферат диссертации(DSc) по экономическим наукам, ТГЭУ,2024.; Турсунув А. Направления развития Исламских банковских услуг в коммерческих банках. Ташкентский финансовый институт. 2021.; Imamnazarov J.M. Islom moliya tizimi imkoniyatlaridan O‘zbekiston iqtisodiyotida foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish. TDIU. 2022.; Xasanov X. Ahloqiy (Islomiy) moliyalashtirish tizimi – innovatsion moliyalashtirish vositasi sifatida (O‘zbekiston va MDH misolida). “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali.; Allaberganova N. Islom kredit institutlari faoliyatining nazariy jihatlari. “Moliya va bank ishi” elektron ilmiy jurnali. №1, 2019 y. 11-16 b.; Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Bozor va unga bog‘liq masalalar. Hilol nashriyoti, 2019.; Qarz va unga bog‘liq masalalar. Hilol nashriyoti, 2019.; Abdulloh A. Tijorat va ishlab chiqarish haqida tasavvur. Xilol-nashr. 2020.; Shaamirova S. Islamic Finance education in Middle East, Europe, and South East Asia. Islamic finance education. 2020.; Нусратхужаев Х. Исламские финансовые транзакции – курс «Муфид». Сертифицированный Шариатский советник и аудитор и член Совета БАОИФУ. mufeed.uz. 2022.

xorijiy hamda Markaziy Osiyo davlatlarida islomiy moliyani joriy etish va rivojlantirish tajribasini tadqiq etish;

O‘zbekistonda islomiy moliya industriyasi rivojlanishi va zamonaviy holatini baholash;

islomiy moliya uchun qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish modelini tadqiq etish;

O‘zbekistonda islomiy moliya industriyasi uchun qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmaning komponentlari va elementlarini aniqlash;

islomiy moliya industriyasi infratuzilmasining rivojlanganligi islomiy moliya bozori hajmiga ta’sir etishini ekonometrik tahlillar orqali asoslash;

O‘zbekistonda islomiy moliya industriyasining qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida islomiy moliya industriyasining infratuzilmasi tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston Respublikasida islomiy moliya industriyasining qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasini shakllanishiga xizmat qiluvchi omillar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada umumiy ilmiy usullar (tahlil va sintez, tizimli yondashuv, tasniflash, induksiya va deduksiya, guruhlash va taqqoslash), shuningdek maxsus usullardan (matematik statistika usullari, ekonometrik modellashtirish) foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

islomiy moliya industriyasini qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasining asosiy komponentlari sifatida ekspert so‘rovnomasi asosida «o‘ta kam ahamiyatli» «kam ahamiyatli», «o‘rtacha ahamiyatli» «yetarlicha ahamiyatli», «o‘ta ahamiyatli» me‘zonlarga ko‘ra baholash orqali «hukumat qo‘llovi», «qonunchilik asosi», «soliq rejimi», «shariat boshqaruvi tizimi», «normativ asos» komponentlarining ahamiyatliligi aniqlangan;

mavjud islomiy moliya infratuzilmasining yetarliligini baholash va monitoring qilishda islomiy bank va Islomiy mikromoliya sektorlari uchun qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmani shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlar va harakatlarni aniqlash yuzasidan IF-MAP (Islomiy moliya strategik xaritalash tizimi) metodologiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan «monitoring-cheklist» instrumentidan foydalanish taklifi ilmiy asoslangan;

makrodarajada islomiy moliya bozori hajmi o‘zgarishiga ta’sir etuvchi «tartibga solish», «barqarorlik», «bilimdonlik», «xabardorlik» omillariga ko‘ra islomiy moliya industriyasining islomiy moliya standartlariga muvofiqlik asoslarini takomillashtirish orqali islomiy moliya bozori hajmini oshirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

islomiy ijara shartnomasining shartlariga rioya etmaganligi natijasida islomiy ijara obyekti nobud bo‘lsa xalqaro AAOIFI 9-sonli Shariat standarti «Ijara va ijara muntahiya bittamlik»ga muvofiq «Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida»gi nizomda islomiy ijara shartnomasining shartlariga rioya etmaganligidan kelib chiqadigan javobgarlikni mijozda bo‘lishini belgilash taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasida islomiy moliya industriyasining qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasining asosiy komponentlari sifatida «hukumat qo‘llovi», «qonunchilik asosi», «soliq rejimi», «shariat boshqaruvi tizimi», «normativ asos» komponentlari aniqlangan;

O‘zbekiston Respublikasida islomiy bank va islomiy mikromoliya faoliyatlari uchun qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmani shakllantirish maqsadida chora-tadbirlarni belgilash bo‘yicha monitoring-cheklist instrumenti ishlab chiqilgan;

London Fond Birjasi Guruhi tomonidan ishlab chiqilgan “Islomiy moliya rivojlanish ko‘rsatkichi” statistik ma’lumotlari asosida islomiy moliya bozori hajmining oshishiga to‘rtta omilning ta’sir darajalarini aniqlash bo‘yicha ekonometrik model ishlab chiqilgan;

mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy ijara xizmatini ko‘rsatishda tomonlar o‘rtasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olish maqsadida mijozning islomiy ijara shartnomasining shartlariga rioya etmaganligi tufayli islomiy ijara obyektini nobud bo‘lsa javobgarlik mijozda bo‘lishi belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasining rasmiy manbalardan, xulosa va takliflarning amalda sinovdan o‘tkazilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ulardan islomiy moliya sektorlarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda, shuningdek, islomiy moliya industriyasi institutsional infratuzilmasini shakllantirish va takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda boshqa tartibga soluvchi organlar, manfaatdor tomonlar tomonidan islomiy moliyani rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xarita yoki bosh rejani ishlab chiqish, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish, islomiy moliya industriyasi infratuzilmasini baholashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. O‘zbekistonda islomiy moliya industriyasi uchun qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

islomiy moliya industriyasini qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasining asosiy komponentlari sifatida ekspert so‘rovnomasi asosida «o‘ta kam ahamiyatli» «kam ahamiyatli», «o‘rtacha ahamiyatli» «yetarlicha ahamiyatli», «o‘ta ahamiyatli» me‘zonlarga ko‘ra baholash orqali «hukumat qo‘llovi», «qonunchilik asosi», «soliq rejimi», «shariat boshqaruvi tizimi», «normativ asos» komponentlarining ahamiyatligini aniqlash asosida bergan takliflari “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda Islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 21-apreldagi 37-13/116-son ma’lumotnomasi). Ushbu takliflarning joriy etilishi natijasida Islom Taraqqiyot Banki tomonidan ishlab chiqilgan “Islomiy moliyani xaritalash tizimi” metodologiyasi va

amaliyotlariga muvofiq islomiy bank va islomiy mikromoliya faoliyatlarini tartibga solish asoslarini takomillashtirish imkoniyati yaratilgan;

mavjud islomiy moliya infratuzilmasining yetarliligini baholash va monitoring qilishda Islomiy bank va islomiy mikromoliya sektorlari uchun qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmani shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlar va harakatlarni aniqlash yuzasidan IF-MAP (Islomiy moliya strategik xaritalash tizimi) metodologiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan «monitoring-checlist» instrumentidan foydalanish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Islomiy bank faoliyati uchun zarur infratuzilmani (normativ-huquqiy asoslar, islomiy investitsiyaviy depozitlarni kafolatlash mexanizmi, likvidlikni boshqarish instrumentlari va boshqalar) shakllantirishga qaratilgan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda Islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 21-apreldagi 37-13/116-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mavjud islomiy moliya infratuzilmasining yetarliligini baholash va monitoring qilish asoslari yaratilgan;

makrodarajada mamlakatda islomiy moliya bozori hajmi o‘zgarishiga ta’sir etuvchi «tartibga solish», «barqarorlik», «bilimdonlik», «xabardorlik» omillariga ko‘ra islomiy moliya industriyasining islomiy moliya standartlariga muvofiqlik asoslarini takomillashtirish orqali islomiy moliya bozori hajmini oshirishning maqsadga muvofiqligini asoslash bo‘yicha bergan taklifi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan islomiy moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan siyosatlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 21-apreldagi 37-13/116-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ekonometrik tahlil natijalari asosida mamlakatda islomiy moliya uchun qonunchilik va boshqaruv asoslarining 10 foizga yaxshilanishi islomiy moliya bozori hajmining 9,25 foizga oshishiga olib kelishi aniqlangan;

Islomiy ijara shartnomasining shartlariga rioya etmaganligi natijasida islomiy ijara obyekti nobud bo‘lsa xalqaro AAOIFI 9-sonli Shariat standarti «Ijara va ijara muntahiya bittamlik»ga muvofiq «Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida»gi nizomda islomiy ijara shartnomasining shartlariga rioya etmaganligidan kelib chiqadigan javobgarlikni mijozda bo‘lishini belgilash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 21-apreldagi 37-13/116-son ma‘lumotnomasi). Natijada Nizomning (ro‘yxat raqami 3536, 26.07.2024-yil) 49-bandida islomiy moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkilotining (AAOIFI) 9-sonli “Ijara va ijara muntahiya bittamlik” standartiga muvofiq mijozning islomiy ijara shartnomasining shartlariga rioya etmaganligi tufayli islomiy ijara obyekti nobud bo‘lsa javobgarlik mijozda bo‘lishi aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida, 1 ta xalqaro ilmiy seminarida va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilib, ma‘ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik

dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 5 ta respublika hamda xorijiy jurnalda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 147 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Islomiy moliya tizimi va Islomiy moliya industriyasi infratuzilmasining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida islomiy moliya tizimining an'anaviy moliya tizimidan farqlari, islomiy moliyaning asosiy tamoyillari, islomiy moliya mahsulotlari, industriyani standartlashtirish, Shariat boshqaruv tizimi va uning tarkibiy qismlari, amaliyotda islomiy moliyaviy mahsulotlarni taklif etish modellari, infratuzilma, moliyaviy infratuzilma va islomiy moliyaviy infratuzilma tushunchalari, o'z mamlakatlarida islomiy moliyani joriy etish va rivojlantirishda bir qator muvaffaqiyatga erishgan xorijiy 3ta mamlakat (Malayziya, Bahrayn, Buyuk Britaniya) tajribalari tadqiq qilingan.

Islomiy moliya – islomiy moliyaviy mahsulotlarni taklif qiluvchi moliyaviy institutlarga nisbatan qo'llaniladigan Shariatdan (Islom huquqshunosligi) olingan muayyan qoidalar to'plamiga bo'ysunuvchi muqobil moliyaviy tizimdir⁹.

Boshqa iqtisodiy tizimlardan farqli ravishda islomiy iqtisodiyot va moliya tizimi tijoriy mazmunidan kelib chiqib, tovar va pul o'rtasidagi farqni belgilaydi. Islomiy moliya sohasidagi olimlar pulni “tovar” emas, balki “almashuv vositasi” yoki “qiymat o'lchovi” deb ajratishgan. Shuning uchun, islomiy moliya nuqtai-nazaridan, puldan faqat haqiqiy aktivga investitsiya qilish holatidagina ustama olish huquqi yuzaga keladi¹⁰. Bundan tashqari, islomiy moliyada yuqori darajadagi noaniqlik yoki mavhumlikka (G'arar) asoslangan yoki ushbularni o'z ichiga olgan savdo shartnomalarini tuzish taqiqlanadi. Islomiy moliyada bitimlar – bu, birinchi navbatda, tomonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlardir. Islomiy moliyaning vazifasi zaif tomonni ekspluatatsiyadan himoya qilish, har ikki tomon uchun tenglik, hukmronsizlik shartlarini o'rnatish hamda barcha talab va shartlarni o'zaro shartnomalarda aniq kelishish va tavsiflashdir. Har bir islomiy moliya tashkiloti Shariat boshqaruv tizimini joriy etish majburiyatiga egadir. Shariat boshqaruv tizimi, birinchi navbatda, Shariatga nomuvofiqlik tavakkalchigini (ShNT) minimallashtirish uchun joriy etiladi. ShNT islomiy moliya institutlari tomonidan Shariat tamoyillariga rioya etmaslik sababidan moliyaviy yo'qotish hamda obro'ni tushishi tufayli tashkilotning daromadi yoki qiymatlari kamayishi tavakkalchiligi sifatida ta'riflanadi.

Adabiyotlarda “infratuzilma” atamasining ko'plab ta'riflari mavjud. Zamonaviy tendentsiyalarga eng mos keluvchi infratuzilma ta'rifining muallifi R. Yoximsen bo'lib,

⁹ Islomiy bank xizmatlari va mahsulotlari bo'yicha yo'riqnoma. Ostona Xalqaro Moliyaviy Markazi. 2022.


¹⁰ Nusratxujayev X. “Mufid” Islomiy moliya kursi. 2022.

o‘zining “Infratuzilma nazariyasi” kitobida davlat tomonidan turli xil infratuzilmalarni barpo etish orqali iqtisodiy rivojlanish nazariyasining konseptual asoslarini ko‘rsatib o‘tgan. Yoximsen o‘z nazariyasida barcha turdagi infratuzilmalarni uchta keng yo‘nalishga ajratgan:

moddiy infratuzilma (yoki moddiy yo‘nalish) – asosiy ijtimoiy va jismoniy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘lgan tovarlar hamda xizmatlar ishlab chiqarishni osonlashtiruvchi asosiy kapital aktivlar va foydalar;

institutsional infratuzilma (yoki institutsional yo‘nalish) – rasmiy qonunchilik hujjatlari, norasmiy kelishuvlar va ushbu qonunchilik hujjatlarini (qoidalarini) kafolatlash hamda amalga oshirish imkoniyatlari;

personal infratuzilma (yoki personal yo‘nalish) – mehnatga layoqatli aholining tegishli xususiyatlari, maxsus va texnik ma‘lumoti, shuningdek uning tadbirkorlik munosabati bilan belgilanadi. Personal infratuzilma tushunchasini “inson kapitali” tushunchasi bilan bog‘lash mumkin (1-rasm).



1-rasm. R.Yoximsen ta’rifiga muvofiq infratuzilma yo‘nalishlari¹¹

Keyinchalik nemis olimi V.Buhr¹², “infratuzilma bu – me‘yorlar (qoidalar), vositalar va chora-tadbirlar kabi vazifalari iqtisodiy subyektlarining iqtisodiy salohiyatini safarbar qilishdan iborat bo‘lgan barcha tegishli iqtisodiy taqdimotlar yig‘indisi” deb ta’riflagan.

Ta’kidlash kerakki, mahalliy adabiyotlarda “Islom kapital bozori ekotizimi” tushunchasidan foydalangan S.Abrorov ta’rifi e’tiborga sazovordir¹³. Tadqiqotchi “Islom kapital bozori ekotizimini bozor faoliyati va rivoji uchun xizmat qiluvchi o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan sohalar, institutlar, ishtirokchilar va boshqa shu kabi elementlar agregatsiyasi” deb ta’riflagan.

“Infratuzilma”, “moliyaviy infratuzilma” va “Islomiy moliyaviy infratuzilma” tushunchalari ta’riflarining taqqosi 1-jadvalda keltirilgan.

“Islomiy moliyaviy infratuzilma” tushunchasining muallif tomonidan ta’rifi sifatida quyidagi ta’rif taklif etildi: *Islomiy moliyaviy infratuzilma – islomiy moliya industriyasining barqaror faoliyat yuritishi va rivojlanishini ta’minlaydigan moddiy, personal va institutsional faoliyat turlari hamda ularni tashkil etish majmuidir.*

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹² Buhr.W. 2003. What is infrastructure? Discussion paper No. 107-03. Siegen University.

¹³ S.Abrorov. 2024. O‘zbekistonda Islom kapital bozori ekotizimini shakllantirishning metodologik asoslari. CEDR.

**Infratuzilma, moliyaviy infratuzilma, islomiy moliyaviy infratuzilma
tushunchalari ta'riflarining qiyosiy tahlili¹⁴**

“Moliyaviy infratuzilma” tushunchasi ta’rifi		«Islomiy moliyaviy infratuzilma» tushunchasi ta’rifi	
Muallif	Ta’rif	Muallif	Ta’rif
R. Yoximsen. 1966-y. Infratuzilma nazariyasi	Infratuzilma – bu hududda iqtisodiy birlikni shakllantirishga hamda teng investitsiyalar kiritish holatida sarflangan resurslarga muvofiq mukofotlarni tenglashtirishga olib keladigan moddiy, personal va institutsional faoliyat va ularning tashkil etilishi majmuidir	Islomiy Moliya Strategik Xaritalash tizimi (IF-MAP). 2022-y.	Islomiy moliya ekotizimini (jumladan infratuzilmasini) quyidagi 10 ta komponent orqali baholash tavsiya etilgan: hukumat qo‘llovi, qonunchilik bazasi, soliq rejimi, normativ baza, Shariat boshqaruvi tizimi, moliyaviy xavfsizlik tizimi, likvidlikni boshqarish infratuzilmasi, inson kapitali, bozor infratuzilmasi
W. Buhr. 2003-y. Infratuzilma bu nima?	Infratuzilma – me’yorlar (qoidalar), vositalar va chora-tadbirlar kabi vazifalari iqtisodiy subyektlarining iqtisodiy salohiyatini safarbar qilishdan iborat bo‘lgan barcha tegishli iqtisodiy taqdimotlar yig‘indisi	Abrorov S.Z. 2024-y. Islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish metodologik asoslari	Islom kapital bozori ekotizimi bu – bozor faoliyati va rivoji uchun xizmat qiluvchi o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan sohalar, institutlar, ishtirokchilar va boshqa shu kabi elementlar agregatsiyasi
Alekseyev V.N. 2013-y. Moliyaviy infratuzilma va uning elementlari: kontseptual yondashuv	Kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan funktsional quyil tizimlar majmuasini o‘z ichiga olgan va ularni ishtirokida moliyaviy resurslarni boshqarish, ularni shakllantirish, tartibga solish va investitsiyalash, nazorat qilish bo‘yicha tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy munosabatlarini tashkil etuvchi nisbiy barqaror tizim	Trunin P., Kamenskih M., Muftya’edinova M. 2009-y. Islomiy moliyaviy tizim: hozirgi holat va rivojlanish istiqbollari	Islomiy moliyaviy infratuzilma quyidagilarni o‘z ichiga oladi: to‘lov tizimi; skrining tizimlari, savdo va kliring tizimlari; Internet-biznes infratuzilmasi; iqtisodiy xavfsizlikni va likvidlikni ta’minashga yordam beruvchi tashkilotlar; tartibga soluvchi organlar; moliyaviy hisobot standartlariga rioya etilishi ustidan nazorat qiluvchi organlar; reyting agentliklari; statistik ma’lumotlarni taqdim etuvchi tashkilotlar; ta’lim muassasalari; ilmiy-tadqiqot tashkilotlari
Ivanova T.B. 2003-y. Global moliyaviy infratuzilma va uning rivojlanish bosqichlari	Davlat va xususiy tuzilmalar hamda uy xo‘jaliklari o‘rtasidagi moliyaviy oqimlarning harakati-ni ta’minlovchi institutlar majmui	Mualliflik ta’rifi	Islomiy moliyaviy infratuzilma – islomiy moliya industriyasining barqaror faoliyat yuritishi va rivojlanishini ta’minlovchi moddiy, personal va institutsional faoliyat turlari hamda ularni tashkil etish majmuidir

Qayd etish kerakki, islomiy moliya industriyasining infratuzilmasini shakllantirish moliya tizimining mavjud infratuzilmasini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi va u mamlakat moliyaviy infratuzilmasining bir qismi yoki toifasiga aylanadi. Bundan tashqari, mavjud infratuzilma yetarli yoki to‘liq bo‘lmasligi, natijada, ayrim infratuzilma elementlari shakllantirilmagan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Biroq, bunday nomukammal infratuzilma ham “infratuzilma” deb qayd etiladi. Natijada, mavjud infratuzilmaning sifatini ta’riflashga ehtiyoj yuzaga keladi. Shu boisdan, yangi islomiy moliya industriyasining shakllanishi va rivojlanishini “qo‘llab-quvvatlovchi”

¹⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

infratuzilmani taqdim etishning ahamiyatiga urg‘u berish maqsadida tadqiqotda “qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilma” iborasini ishlatish belgilab olingan. Tadqiqotlar ko‘rsatdiki, “qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilma” iborasi M. Maguraning “innovatsiyalar infratuzilmasi” maqolasida¹⁵ va “Islomiy moliya strategik xaritalash tizimi” yo‘riqnomasida ham qo‘llanilgan¹⁶.

Islom Taraqqiyot Banki (ITB) instituti ITBga a‘zo davlatlardagi islomiy moliya infratuzilmasini mustahkamligi, barqarorligi va kamchiliklarini aniqlovchi maxsus tizimni ishlab chiqqan va ushbu tizim “Islomiy moliya strategik xaritalash tizimi” (IF-MAP) deb atalgan. IF-MAP ma‘lum bir mamlakatda islomiy moliya ekotizimining asosiy komponentlarini baholash uchun mo‘ljallangan. Shunga ko‘ra, bir qator tadqiqotlarga asoslanib, IF-MAP mualliflari baholash uchun tanlangan mamlakatda islomiy moliya ekotizimining rivojlanishini belgilovchi asosiy komponentlar sifatida quyidagi komponentlarni belgilashgan: hukumat qo‘llovi, qonunchilik bazasi, soliq rejimi, normativ baza, Shariat boshqaruvi tizimi, moliyaviy xavfsizlik tizimi, likvidlikni boshqarish infratuzilmasi, inson kapitali, bozor infratuzilmasi. Tegishli islomiy moliya sektorlari bo‘yicha komponentlarning har birini alohida baholash va baholarni umumlashtirish orqali IF-MAP metodologiyasi islomiy moliya industriyasi ekotizimi rivojlanganligini quyidagi darajalarga muvofiq aniqlash imkonini bergan: rivojlanmagan (0-20%), boshlang‘ich (21-40%), rivojlanayotgan (41-60%), qo‘llovchi (61-80%), rivojlangan (81-80%).

Tadqiqot davomida, Malayziya tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ushbu mamlakat islomiy moliya industriyasini qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasini muvaffaqiyatli barpo etish namunasidir. Ushbu davlatda institutsional infratuzilma islomiy moliya injiniringini – yangi islomiy moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy qilish erkinligini taqdim etgan. Tarixan, Malayziya hukumati 1983-yilda mamlakatda islomiy bank biznesini litsenziyalash va tartibga solishni ko‘zda tutadigan islomiy bank faoliyati qonunini qabul qilgan. Bir yil o‘tib, Takaful – islomiy sug‘urta to‘g‘risidagi qonun ham kuchga kirgan¹⁷. 1979-yilda islomiy moliya joriy etilgan Bahrayn Qirolligida bugunga kelib Yaqin Sharqdagi eng ko‘p islomiy bank va moliya institutlari joylashgan hamda davlat jahon islomiy moliya markazlaridan biriga aylangan. Islomiy moliyani rivojlantirishga ko‘maklashish uchun 2006-yilda Bahrayn markaziy banki Bahraynning islomiy moliya institutlari bilan hamkorlikda, moddiy infratuzilma elementining na‘munasi deb hisoblash mumkin bo‘lgan, maxsus “Vaqf jamg‘armasi”ni tashkil etgan. Aholisini kamchiligini musulmonlar tashkil etuvchi davlatlar orasida Birlashgan Qirollik (Buyuk Britaniya) islomiy moliyaga doimiy qiziqish bildirib kelgan mamlakatlardan biridir. Hozirda Birlashgan Qirollik Yevropa davlatlari orasida to‘laqonli islomiy banklarning eng katta kontingentiga ega (davlatda to‘rtta to‘laqonli islomiy banklar va o‘n ikkita islomiy darchalar joriy etilgan)¹⁸. 2014-yilda mavjud qonunchilik Birlashgan Qirollik hukumatiga suveren Sukuk emissiya qilish uchun o‘zgartirilgan va shu yilning o‘rtasida 200 million funt sterlingga teng suveren Sukuk chiqarilgan¹⁹.

¹⁵ Магура М.И. 2011. *Инфраструктура инноваций*. Журнал «Управление персоналом»

¹⁶ IsDB. 2022. Islamic Finance Strategic Mapping Framework (IF-MAP)

¹⁷ Maha-Hanaan Balala. 2011. Islamic finance and law: theory and practice in a Globalized World. I.B.Tauris Co Ltd

¹⁸ globalbankingandfinance.com. 2023. Birlashgan Qirollikdagi Islomiy banklar ro‘yhati.

¹⁹ Gov.uk. 2014. Government issues first Islamic bond

Dissertatsiyaning “**Markaziy Osiyo mamlakatlarida Islomiy moliya industriyasi infratuzilmasi va O‘zbekiston Respublikasining joriy moliyaviy infratuzilmasi tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida dastlab, Markaziy Osiyoning uchta davlatida (Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston) islomiy moliya faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari va infratuzilma elementlarini shakllantirish tajribalari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu tajribalarning kuchli va zaif tomonlari aniqlangan va IF-MAP metodologiyasi asosida davlatlarda islomiy moliya industriyasi infratuzilmasining rivojlanish darajasi baholangan. Shundan so‘ng, ushbu mamlakatlarda islomiy moliya bozorlarining rivojlanish hajmlari va sur‘atlari tahlil qilingan hamda ushbu ko‘rsatkichlar islomiy moliya industriyasi infratuzilmasining rivojlanish darajalari bilan taqqoslangan. Natijada, O‘zbekistonda islomiy moliyaga bo‘lgan talab va hozirgi mavjud islomiy moliya takliflari tahlillari keltirilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning mavjud moliyaviy infratuzilmasi va uning islomiy moliya industriyasiga tatbiq etilish darajasi tadqiq qilingan.

2-jadval

Markaziy Osiyo mamlakatlarida islomiy moliyaga oid aniqlangan normativ-huquqiy kamchiliklarning qiyosiy jadvali²⁰

Qozog‘iston	Tojikiston	Qirg‘iziston
<p>islomiy moliya Bosh rejasi majburiy hujjat emasligi, balki faqat tavsiya etilgan hujjat hisoblanishi;</p> <p>an’anaviy banklarda islomiy darchalarni joriy etish taqiqlanadi;</p> <p>bozorni tartibga solish asosan “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun bilan amalga oshiriladi, bu esa normativ-huquqiy bazaga o‘zgartirishlar kiritish imkoniyatini murakkablashtiradi;</p> <p>fuqarolik kodeksiga islomiy bank faoliyatiga aloqador bo‘lgan bandlarga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilmagan;</p> <p>qonunlarda Xalqaro islomiy moliya standartlariga havolalar mavjud emas;</p> <p>an’anaviy bankdan islomiy bankka aylanish jarayoni umumiy qoidalar bilan tavsiflangan;</p> <p>islomiy banklarning korporativ boshqaruvi va risklarni boshqarish bo‘yicha talablari islomiy xalqaro amaliyotlarga mos kelmaydi;</p> <p>islomiy sug‘urta kompaniyalari uchun yuqori minimal kapital talablari qo‘yilgan;</p> <p>ARRFR (moliyaviy bozorlarni tartibga soluvchi organ) tuzilmasida islomiy moliya bilan ishlash bo‘yicha maxsus departament/boshqarma mavjud emas;</p> <p>islomiy moliya institutlari qo‘shimcha davlat bojlari to‘lovlarni amalga oshirishga majbur.</p>	<p>islomiy moliya bo‘yicha aniq siyosatning mavjud emasligi;</p> <p>fuqarolik kodeksiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilmagan;</p> <p>“Qimmatli qog‘ozlar bozori” tog‘risidagi qonunda islomiy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish uchun huquqiy asos mavjud emas;</p> <p>an’anaviy kredit tashkilotining oldingi moliyaviy davrlar uchun zakot to‘lash majburiyati, bu Markaziy Osiyo yurisdiksiyalari orasida Tojikistonga xos bo‘lgan alohida shart;</p> <p>transformatsiya davrida bosqichma-bosqich konvertatsiya qilish uchun qonuniy asoslar mavjud emasligi;</p> <p>“Darcha” kapitali manbasini tasdiqlash bo‘yicha manbaning “Halol” bo‘lishini ta’minlash uchun NBT talabi mavjud. Bunday talab AAOIFning Shariat standartlarida belgilanmagan.</p>	<p>qonunchilikda Islomiy moliya tashkiloti qonun hujjatlarida belgilanganidan bosh-qashariatga muvofiq shartnomalar yoki amaldagi belgilangan shartnomalar birikmasidan foydalanishi mumkinligi to‘g‘risida aniqlik kiritilmagan;</p> <p>har bir yangi islomiy moliya mahsuloti uchun regulyator roziligi talabi mavjud.</p>
Umumiy kamchiliklar:		
<p>mamlakatda Markaziy Shariat kengashi joriy etilmagan; islomiy depozitlarini himoya qilish fondi mavjud emas; islomiy moliya bo‘yicha ta’lim va akademik dasturlar mavjud emas; islomiy moliyaviy savodxonlik va xabardorlik moliyaviy savodxonlik va inklyuzivlik siyosatining bir qismi emas; islomiy moliya bo‘yicha ixtisoslashtirilgan arbitraj markazlari mavjud emas; islomiy markaziy likvidlik vositalari mavjud emas.</p>		

²⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Tadqiqot doirasida, Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribalarini tahlil qilish asosida ushbu mamlakatlarda islomiy moliya infratuzilmasiga aloqador aniqlangan asosiy kamchiliklar ro'yxati ishlab chiqilgan (2-jadval). Tahlillar natijasida Qozog'iston va Tojikistonda islomiy moliya industriyasi infratuzilmasi boshlang'ich darajada ekanligi aniqlangan. Boshlang'ich darajadagi infratuzilmaga ega ushbu mamlakatlarda Islomiy bank aktivlari umumiy bank bozoridagi aktivlarning 1%dan ortiq ulushiga erisha olmaganligi, boshqa islomiy moliya sektorlari esa ahamiyatsiz bozor hajmlariga ega ekanligi aniqlangan(3-jadval).

3-jadval

Markaziy Osiyo davlatlarida 2023-yilda islomiy moliya ekotizimi rivojlanganligi darajasi va islomiy bank bozori hajmi²¹

Yo'nalish	Qozog'iston	Tojikiston	Qirg'iziston
IF-MAP metodologiyasiga muvofiq Islomiy moliya ekotizimi rivojlanganligi darajasi	Boshlang'ich islomiy moliya ekotizimi (21%-40%)	Rivojlanayotgan islomiy moliya ekotizimi (40%-60%)	Boshlang'ich islomiy moliya ekotizimi (21%-40%)
An'anaviy banklar soni	20	23	14
Islomiy banklar soni	2	1	1
Ananaviy banklar qoshidagi islomiy darchalar soni	0	4	0
Umumiy bank bozorida islomiy bank bozori ulushi	0.39%	1.33%	0.78%
Islomiy banklar umumiy aktivlari hajmi	203.1 mlrd. KZT (422.67 mln AQSh dollari)	8.16 mlrd. KGS (97.14 mln AQSh dollari)	243.6 mln. TJS (22.913 mln AQSh dollari)

Rivojlanayotgan islomiy moliya infratuzilmasiga ega deb baholangan Qirg'izistonda islomiy bank va islomiy sug'urta bozorlari ulushlari Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng yuqori ulushlarga egaligi aniqlangan. Shunga qaramay, islomiy moliya industriyasi Qirg'izistonda ham umumiy moliya bozorida hali tizimli muhim natijalarga erisha olmagan. Tahlillarga ko'ra infratuzilma darajasi yuqoriroq bo'lgan davlatda islomiy moliya bozori hajmi ham kattaroq bo'lishi kuzatilgan.

O'zbekistonda islomiy bank xizmatlari uchun huquqiy asoslar mavjud bo'lmasada, mamlakatda islomiy bank faoliyati bo'yicha ayrim tayyorgarliklar va faoliyatlar olib borilayotganligi aniqlangan. Jumladan, "Trastbank", "O'zsanoatqurilishbank" va "Hamkorbank" kabi mahalliy tijorat banklari Xususiy sektorni rivojlantirish islomiy korporatsiyasi (XSRIK) va Xalqaro islomiy savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK) bilan hamkorlikda islomiy moliyalashtirish liniyalarni taklif etgan (4-jadval).

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, "Trastbank"ga XSRIK tomonidan ajratilgan moliyalashtirish liniyasi 10 million AQSH dollarini, XISMK tomonidan liniya esa – 15 million AQSH dollarini tashkil etgan²². Bundan tashqari, ushbu bank "Trast Muomalat" nomli sho'ba kompaniyasini tashkil etgan bo'lib, u mijozlarga islomiy lizing mahsulotlarini taklif etishni yo'lga qo'ygan²³.

²¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

²² "Trastbank" AJ veb-sayti rasmiy ma'lumotlari

²³ Trustbank.uz. 2024. Trast muomalat

2024-yilga kelib XRSIK bilan hamkorlik o‘rnatgan tijorat banklar ro‘yxati²⁴

№	Nomi	Turi
1.	O‘zsanoatqurilishbank	Davlat banki
2.	Agrobank	Davlat banki
3.	Ipoteka bank	Davlat-xususiy banki
4.	Xalq banki	Davlat banki
5.	Qishloq Qurilish Bank	Davlat banki
6.	Kapitalbank	Xususiy bank
7.	Mikrokreditbank	Davlat banki
8.	Aloqabank	Davlat banki
9.	Hamkorbank	Xususiy bank
10.	Turonbank	Davlat banki
11.	Ipak Yo‘li Bank	Xususiy bank
12.	Trustbank	Xususiy bank
13.	InFinBank	Xususiy bank
14.	Orient Finance Bank	Xususiy bank
15.	Asia Alliance Bank	Xususiy bank

Shuningdek, “Hamkorbank” ham faoliyati doirasida islomiy lizing mahsulotlarini taklif etishni boshlagan²⁵. XRSIKning texnik maslahat yordami bilan 2021-yilda bir nechta an’anaviy banklar (masalan, “Trustbank” va “Asia Alliance Bank”) Islomiy bank darchalarini joriy etish rejaları ustida ishlashni boshlashgan²⁶. Izlanishlar ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda jami 15ta bank XRSIK bilan hamkorlik to‘g‘risida bitimlar imzolagan. Islomiy sug‘urta sohasi bo‘yicha mamlakatda qonunchilik asoslari hali mavjud bo‘lmasa-da, “Apex Insurance”, “Temiryo‘l sug‘urta” va “Gross Insurance” kompaniyalari faoliyatlari doirasida islomiy sug‘urta (Takaful) xizmatlarini taklif etishni yo‘lga qo‘yishgan²⁷. Ammo, ushbu takliflar hajmi tizimli muhim darajaga chiqqan olmagan.

Dissertatsiyaning “O‘zbekistonda Islomiy moliya industriyasining qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishning metodologik asoslari” deb nomlangan uchinchi bobida islomiy moliya industriyasi uchun qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilma omillari bo‘yicha ekspert so‘rovnomasi natijalari, O‘zbekistonda mavjud qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilma elementlari jadvali keltirilgan, mamlakatda islomiy moliya bozorining hajmini oshirishga to‘rtta omilning ta’sir darajasini aniqlash bo‘yicha ekonometrik model taklif etilgan, qonunchilik hujjatlari, soliq tizimiga o‘zgartirishlar bo‘yicha takliflar va O‘zbekistonda islomiy moliya industriyasining institutsional infratuzilmasini barpo etish yondashuvi taklif etilgan.

Tadqiqot davomida, islomiy moliya industriyasi uchun qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmaning shakllanishi va rivojlanishida ahamiyatli hisoblangan omillarni aniqlash maqsadida mahalliy va xalqaro mutaxassislar o‘rtasida ekspert so‘rovnomasi o‘tkazilgan (5-jadval).

So‘rovnoma doirasida, so‘rovnoma ishtirokchilariga ko‘rsatilgan komponentlar ro‘yhatidan ahamiyatli komponentlarni tanlash taklif qilingan (bir nechta komponentlarni tanlash imkoni berilgan).

²⁴ Internetdagi rasmiy ma’lumotlar asosida

²⁵ Hamkorbank.uz.2025. Islomiy moliyalashtirish

²⁶ “Islom Taraqqiyot banki” jurnali. 2021, 11-bet

²⁷ Apextakaful.uz. 2024. Takaful; tys.uz. 2024. Takaful.; gross.uz. 2024. Takoful.

5-jadval

Islomiy moliya industriyasining qo‘llab-quvvatlovchi Infratuzilmasi (IMIQI) omillari bo‘yicha ekspert so‘rovnomasi natijalari

№	Omillar/ Komponentlar	Omilni “ahamiyatli” deb hisobla- gan ishtirok- chilar soni	Omilni “aha- miyatli” deb hisobla-gan ishtirok-chilar ulushi (%)	Omilning “ahami- yati” bo‘yicha 1dan 5gacha bo‘lgan baholash tizimida o‘rtacha natijasi	Omilni “ahami- yatli” deb tanlagan ishtirok-chilar soni hisobga olingandagi bahosi
1	Hukumat qo‘llovi	9	100%	4.56	4.56
2	Qonunchilik bazasi	9	100%	4.56	4.56
3	Soliq rejimi	9	100%	4.56	4.56
4	Normativ baza	9	100%	4.56	4.56
5	Shariat boshqaruv tizimi	9	100%	4.56	4.56
6	Inson kapitali	8	89%	4.13	3.68
7	Likvidlikni boshqarish islomiy mexanizmlari	7	78%	4.29	3.35
8	Aholi xabardorligi	7	78%	4.14	3.23
9	Moliyaviy xavfsizlik tizimi	6	67%	4	2.68
10	Bozor rivojlanganligi	6	67%	3.86	2.59

Shuningdek, mutaxassislar Markaziy Osiyoda islomiy moliya industriyasini qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasini (IMIQI) rivojlantirish uchun ahamiyatli bo‘lgan, ro‘yhatda keltirilmagan yangi komponentlarni taqdim qilish tavsiya etilgan. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga har bir omilning ahamiyati darajasini 1dan 5gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha baholash taklif etilgan. Bunda, baholash shkalasidagi 1-komponent islomiy moliya industriyasini qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasi (IMIQI) uchun ba’zi muhim elementlarga ega (o‘ta kam ahamiyatli), 2-komponent IMIQI uchun o‘rtacha sondagi muhim elementlarga ega (kam ahamiyatli), 3-komponent IMIQI uchun ko‘p sondagi muhim elementlarga ega (o‘rta ahamiyatli), 4-komponent IMIQI uchun yetarli ahamiyatli, 5-komponent IMIQI uchun o‘ta ahamiyatli ekanligi belgilangan.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, unda ishtirok etgan ekspertlarning uchdan ikki qismi (67%) taklif etilgan barcha 10ta komponentni islomiy moliya industriyasining qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasi (IMIQI) uchun ahamiyatli deb topishgan. Shuningdek, ishtirokchilarning barchasi (100%) hukumat qo‘llovi, qonunchilik bazasi, soliq rejimi, normativ baza va Shariat boshqaruv tizimi kabi beshta komponentni IMIQIning shakllantirishda ahamiyatli deb belgilashgan. Ekspertlar tomonidan ushbu beshta komponentning har biri 5-ballik baholash tizimida 4,56 ball bilan baholangan, ya’ni eng ahamiyatli omillar deb topilgan.

Qayd etish kerakki, ushbu besh komponent bevosita hukumat faoliyati bilan bog‘liqdir. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra IF-MAP metodologiyasida taklif etilgan infratuzilma komponentlari ahamiyatli ekanligi tasdiqlangan hamda O‘zbekistonda islomiy moliya industriyasini shakllantirish va rivojlantirish modelini ishlab chiqishda ushbu komponentlarni qo‘llash mumkinligini aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasi uchun Islomiy moliya industriyasining qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmasi elementlari²⁸

Islomiy moliya industriyasining qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmasi					
Institutsional infratuzilma		Personal infratuzilma		Moddiy infratuzilma	
Komponent	Element	Komponent	Element	Komponent	Element
Hukumat qo'llovi	<ul style="list-style-type: none"> islomiy moliya bo'yicha davlat siyosati; islomiy moliya bo'yicha hukumat strategiyasi; islomiy moliyani rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasi yoki bosh reja. 	Hukumat qo'llovi	Islomiy moliyani rivojlantirish bo'yicha ishchi guruh	Hukumat qo'llovi	<ul style="list-style-type: none"> yo'l xaritasi yoki bosh rejani amalga oshirish bo'yicha mas'ul organ
Qonunchilik bazasi	<ul style="list-style-type: none"> to'laqonli islomiy moliya institutlari faoliyati uchun huquqiy asos; an'anaviy moliya institutlari qoshida islomiy darchalar faoliyati uchun huquqiy asos; an'anaviy moliya institutidan islomiy moliya institutiga aylanish uchun huquqiy asos; islomiy qimmatli qog'ozlar uchun huquqiy asos; shariat boshqaruv tizimi uchun huquqiy asos; maxsus islomiy moliya arbitraj markazlari uchun huquqiy asos. 	Inson kapitali	Quyidagilar uchun islomiy moliya bo'yicha o'quv dasturlari: <ul style="list-style-type: none"> davlat xodimlari; moliya tashkilotlari xodimlari; moliya tashkilotlari shariat maslahatchilari; bakalavr, magistratura, doktorantura bosqichlarida islomiy iqtisdiyot va moliya bo'yicha akademik dasturlar; islomiy moliya bo'yicha professional dasturlar, xalqaro kvalifikatsiyalar va sertifikatlar; islomiy moliya bo'yicha konferentsiyalar va seminarlar; xo'jalik sudlari sudyalari uchun o'quv dasturlari. 	Shariat boshqaruv tizimi	<ul style="list-style-type: none"> markaziy Shariat Kengashi; institutsional Shariat Kengashi; ichki institutsional shariat funksiyasi; shariat auditi bo'yicha tashkilotlar; maxsus islomiy moliya arbitraj markazlari.
Soliq rejimi	Quyidagi soliqlar bo'yicha soliq neytralligi/soliq imtiyozlari: <ul style="list-style-type: none"> daromad solig'i qo'shimcha qiymat solig'i aksiz solig'i davlat bojlari bo'yicha neytrallik. 		Moliyaviy xavfsizlik tizimi	<ul style="list-style-type: none"> islomiy so'nggi sohil qo'llovi; islomiy depozitlarni himoyalash tizimi (fondi). 	
Normativ baza	islomiy moliya institutlari uchun quyidagilar bo'yicha normativ-huquqiy baza: <ul style="list-style-type: none"> boshlang'ich ustav kapitali bo'yicha tenglik (paritet); kapital monandligi talablari; islomiy darchalari mavjud moliya tashkilotlari uchun islomiy va an'anaviy aktivlar ajratilishi va o'zaro aralashib ketmasligi (segregatsiyasi); korporativ boshqaruv talablari; tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha talablar; moliyaviy hisobot va audit bo'yicha talablar; korporativ boshqaruv bo'yicha AAOIFI va IFSB xalqaro standartlarini tasdiqlash va qabul qilish. 		Inson kapitali	<ul style="list-style-type: none"> islomiy moliya bo'yicha maxsus tadqiqot markazlari. 	
Shariat boshqaruv tizimi	Quyidagilar bo'yicha normativ-huquqiy asoslar: <ul style="list-style-type: none"> moliyaviy institutlarda shariat boshqaruv tizimi; tashqi shariat auditi; shariat boshqaruv bo'yicha AAOIFI va IFSB xalqaro standartlarini qabul qilish. 		Likvidlikni boshqarish islomiy vositalari	<ul style="list-style-type: none"> likvidlikni taqdim etish islomiy vositalari; likvidlikni jalb etish islomiy vositalari. 	
Moliyaviy xavfsizlik tizimi	Quyidagilar bo'yicha normativ-huquqiy asoslar: <ul style="list-style-type: none"> islomiy so'nggi sohil qo'llovi; islomiy depozitlarni himoyalash tizimi (fondi); 	Aholi xabardorligi	<ul style="list-style-type: none"> islomiy moliya bo'yicha aholi xabardorligini oshirish bo'yicha davlat dasturlari; islomiy moliya bo'yicha aholi xabardorligini oshirish bo'yicha korporativ dasturlar; islomiy moliyaviy mahsulotlarga talab bo'yicha so'rovnomalarni taqdim etish. 	Bozor rivojlanganligi	<ul style="list-style-type: none"> kapital bozorda mahalliy islomiy indekslar; islomiy investitsiyaviy fondler; rivojlantirish islomiy moliyaviy tashkilotlari; "Haj" fondi; zakot fondlari; Vaqf fondlari; islomiy moliya bo'yicha venchur fondler; islomiy FinTex bo'yicha tartibga soluvchi qumdon.
Likvidlikni boshqarish islomiy vositalari	Quyidagilar bo'yicha normativ-huquqiy asoslar: <ul style="list-style-type: none"> likvidlikni taqdim etish Islomiy vositalari; likvidlikni jalb etish Islomiy vositalari; Suveren Sukuk; Kvazi-suveren Sukuk; Korporativ Sukuk. 				
Bozor rivojlanganligi	<ul style="list-style-type: none"> raqamlashtirish strategiyasida islomiy moliya; islomiy FinTex bo'yicha strategiya. 				

²⁸ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

Tadqiqotlar natijasida, qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish maqsadida infratuzilma komponentlari bilan bir qatorda, ushbu infratuzilma komponentlarining shakllanishini ta‘minlovchi elementlarni aniqlash ahamiyatli hisoblangan. Shuningdek, aniqlangan elementlarning har birining shakllanishi, rivojlanishi yoki joriy etilishini tizimli monitoring qilish uchun qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmani shakllantirish jarayonini monitoring qilish instrumentini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb topilgan. Shu boisdan, xalqaro standartlar va tajribalar, Islom Taraqqiyot Banki Instituti tadqiqotlari va yo‘riqnomalarini o‘rganish asosida ekspert so‘rovnomasi doirasida belgilangan o‘nta komponent bo‘yicha Islomiy moliya industriyasini qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasi elementlari jadvali tuzilgan (6-jadval).

6-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, islomiy bank va islomiy mikromoliya sektorlari uchun qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmani shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlar va harakatlarni belgilash bo‘yicha monitoring instrumentini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Mazkur monitoring-checklist instrumenti 111 ta banddan iborat bo‘lib, tartibga soluvchi organ yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan foydalanish uchun mo‘ljallangan. Natijada, ushbu instrument vositasida islomiy moliya industriyasining qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish monitoringini olib borishda tizimli yondashuvni joriy etish imkoniyati taqdim etilgan.

London Fond Birjasi Guruhi (LSEG), avvalgi “Refinitiv” tashkiloti, turli mamlakatlarda Islomiy moliya industriyasi rivojlanishini o‘lchash va baholash uchun maxsus instrument ishlab chiqqan bo‘lib, ushbu instrument Islomiy moliya rivojlanishi indikator (IRIF) deb nomlangan. IRIF – bu islomiy moliya industriyasining umumiy rivojlanishini o‘lchovchi, beshta komponentdan tashkil topgan indeks bo‘lib, har bir komponenti bo‘yicha baholarning yig‘ma o‘rtacha bahosini o‘lchash orqali hisoblanishi belgilangan. Bu komponentlar(indikatorlar) IRIF metodologiyasiga ko‘ra Islomiy moliya rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari deb e‘tirof etilgan. Bular, “moliyaviy ko‘rsatkich” (ya‘ni islomiy moliyaviy bozor hajmi), “tartibga solish” (ya‘ni, qonunchilik va boshqaruv asoslari), “barqarorlik”, “xabardorlik”, “bilimdonlik” deb nomlangan indikatorlardir. LSEG tomonidan ishlab chiqilgan instrument statistik ma‘lumotlari yordamida mazkur islomiy moliya rivojini harakatlantiruvchi kuchlari hisoblangan beshta indikatorlar o‘rtasidagi korrelyatsiyani o‘rganish imkoniyati yuzaga kelgan. Shu boisdan, ekonometrik tadqiqot uchun 2020–2024-yillar davomida IRIF bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan 15ta davlat ichidan 10ta davlat tanlab olingan va ushbu davlatlar bo‘yicha statistik ma‘lumotlar yig‘ilgan (7-jadval).

Umumiy hisobda 50 ta kuzatuvlar yig‘ilgan bo‘lib, tadqiqot doirasida quyidagi ekonometrik model taklif etilgan:

$$\ln(\text{Moliyaviy ko'rsatkich})_{i,t} = \beta_0 + \beta_1 \cdot \ln(\text{Tartibga solish}) + \beta_2 \cdot \ln(\text{Barqarorlik}) + \beta_3 \cdot \ln(\text{Bilimdonlik}) + \beta_4 \cdot \ln(\text{Xabardorlik}) + \beta_5 \cdot 2021 + \beta_6 \cdot 2022 + \beta_7 \cdot 2023 + \beta_8 \cdot 2024 + \mu_i + \epsilon_{i,t}$$

Bu yerda, $\ln(\text{Moliyaviy ko‘rsatkich})_{i,t}$ – i birlik uchun t vaqtda moliyaviy ko‘rsatkichning natural logarifmi; β_0 – konstanta; $\ln(\text{Tartibga solish})$ – β_1 koeffitsiyenti bilan tartibga solish indikatorining logarifmi; $\ln(\text{Barqarorlik})$ – β_2 koeffitsiyenti bilan

barqarorlik indikatorining logarifmi; $\ln(\text{Bilimdonlik}) - \beta_3$ koeffitsiyenti bilan bilimdonlik indikatorining logarifmi; $\ln(\text{Xabardorlik}) - \beta_4$ koeffitsiyenti bilan xabardorlik logarifmi; 2021, 2022, 2023, 2024 – tegishli β koeffitsiyentlar bilan har bir yil uchun dummy (soxta) o‘zgaruvchilar (bazaviy yil – 2020); μ_i – vaqtga bog‘liq bo‘lmagan xatolik; $\epsilon_{i,t}$ – vaqtga bog‘liq xatolik.

7-jadval

Ekonometrik tahlil uchun tanlangan davlatlar ro‘yhati hamda IRIF-2024 ko‘rsatkichlari qiymatlari²⁹

No	Davlat	Moliyaviy ko‘rsatkich (Y)	Tartibga solish (x1)	Barqarorlik (x2)	Bilimdonlik (x3)	Xabardorlik (x4)
1	Malayziya	157	101	128	147	200
2	Saudiya Arabistoni	146	72	96	90	177
3	Indoneziya	63	79	33	200	107
4	Bahreyn	45	85	28	37	185
5	Quveyt	55	80	28	24	191
6	BAA	77	85	39	68	200
7	Ummon	14	75	24	23	46
8	Pokiston	40	78	24	119	200
9	Qatar	30	65	27	15	101
10	Iordaniya	15	50	46	37	6

Tadqiqotning o‘ziga xos xususiyatlari va kuzatuvlar soni tahlili natijasida, oddiy OLS regressiyasi yetarlicha aniq natija bermasligi aniqlangan. Shu sababli, Hausmann testi natijalariga ko‘ra tadqiqotga ko‘proq mos keluvchi model sifatida Fixed Effects modeli tanlangan.

8-jadval

Regressiya natijalari³⁰

lnFinancialPerform~Y	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
lnGovernancex1	.925	.255	3.63	.005	.349	1.501	***
lnSustainabilityx2	-.054	.131	-0.41	.69	-.349	.242	
lnKnowledgex3	.16	.112	1.42	.189	-.094	.414	
lnAwarenessx4	.116	.073	1.59	.147	-.049	.281	
Constant	-1.328	1.418	-0.94	.374	-4.536	1.88	
Mean dependent var		3.532	SD dependent var			0.646	
R-squared		0.329	Number of obs			50	
F-test		3.689	Prob > F			0.048	
Akaike crit. (AIC)		-13.126	Bayesian crit. (BIC)			-5.478	

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

Ekonometrik tahlil natijalariga ko‘ra R-squared (R^2) ko‘rsatkichi 0.3288 teng bo‘lib, Fixed Effects modeli uchun bu ko‘rsatkich qoniqarli hisoblanadi. Shuningdek, ushbu regressiya multikolinearlik va geteroskedastiklik bo‘yicha tekshirilgan.

Multikolinearlik mavjudligini aniqlash uchun estat vif komandasi yordamida VIF (variance inflation factor) testi o‘tkazilgan. Odatda, VIF ko‘rsatkichi beshdan kam

²⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

³⁰ Ekonometrik tahlil Stata 15.0 programmasida amalga oshirilgan

bo'lsa xavfsiz deb hisoblanadi. Regressiyada VIF ko'rsatkichi 1.6ni tashkil etgan, bu esa, qabul qilsa bo'ladigan darajadir. Shundan so'ng, Breusch-Pagan / Cook-Weisberg testi orqali geteroskedastiklik mavjudligi aniqlangan. Ushbu muammo ta'sirini yo'qotish uchun, regressiya vce (cluster ID) buyrug'i kiritilgan holda Fixed Effects modelida amalga oshirilgan (8-jadvalni qarang).

Mazkur ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra mustaqil o'zgaruvchi "Tartibga solish" va bog'liq o'zgaruvchi "Moliyaviy ko'rsatkich" o'rtasida sezilarli korrelyatsiya mavjudligi aniqlangan. Biroq, mustaqil o'zgaruvchilar "Barqarorlik", "Xabardorlik" va "Bilimdonlik" va bo'g'liq o'zgaruvchi "Moliyaviy ko'rsatkich" o'rtasida statistik ahamiyatga ega korelyatsiya aniqlanmagan. Shunday qilib, tahlil shuni ko'rsatganki, "Tartibga solish" islomiy moliya industriyasining "Moliyaviy ko'rsatkichi"ga statistik jihatdan muhim va ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ushbu ta'sir 0.925 koeffitsiyent bilan baholangan. Natijada, islomiy moliya uchun tartibga solish va boshqaruv asoslarining 10 foizga yaxshilanishi islomiy moliya bozori hajmi 9.25 foizga kengayishiga olib kelishi aniqlangan (ceteris paribus holatida).

Ekonometrik tahlil natijasida quyidagi model shakllantirilgan:

$$\ln(\text{Moliyaviy ko'rsatkich}) = 0.925 \cdot \ln(\text{Tartibga solish}) - 0.54 \cdot \ln(\text{Barqarorlik}) + 0.16 \cdot \ln(\text{Bilimdonlik}) + 0.116 \cdot \ln(\text{Xabardorlik}) - 1.328$$

Izlanishlar asosida O'zbekistonda tashkil etilishi tavsiya etilgan asosiy islomiy moliya sektorlari sifatida quyidagi tartibga solinadigan moliya bozori sektorlari taklif etilgan: Islomiy bank sektori, islomiy sug'urta sektori, islomiy mikromoliya sektori va islomiy kapital bozori sektori.

Umuman, Islom tarixida jamiyatga foyda keltiruvchi, urfda ko'p qo'llaniladigan, jumladan, tijoriy munosabatlarda, keng tarqalgan amaliyotlar muvofiq ravishda isloh qilingan, takomillashtirilgan va ulardan keng foydalanilgan. Shu sababli, islomiy moliya tamoyillariga zid bo'lgan jihatlarini olib tashlash, o'zgartirish, takomillashtirish orqali an'anaviy moliyadagi mavjud tizimlar, vositalar va hatto qonunchilikdan foydalanish islomiy moliya tamoyillariga muvofiq hisoblanadi. Tahlillar natijalariga ko'ra, islomiy moliya industriyasi sektorlarini joriy etish uchun amaldagi qonun hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali huquqiy asoslarni taqdim etish maqsadga muvofiq hisoblangan.

O'zbekistonda islomiy moliya institutsional infratuzilmasining hozirgi holatini o'rganish shuni ko'rsatdiki, mamlakatda islomiy moliyani joriy etish bo'yicha ilk qadamlar islomiy mikromoliya sektori uchun 2022-yilda "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliya faoliyati to'g'risida"gi qonunga qo'shimchalar kiritish va o'z navbatida, 2024-yilda "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliya xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi 3536-sonli Nizomni qabul qilish orqali amalga oshirilgan. Islomiy mikromoliya sektorini huquqiy asos bilan ta'minlash uchun kiritilgan o'zgartirishlarni ilg'or xalqaro huquqiy amaliyot bilan solishtirish va tahlil qilish natijasida ushbu qo'shimchalar islomiy mikromoliya sektori uchun benuqson, mukammal huquqiy asos bilan ta'minlash uchun yetarli emasligini aniqlangan. Xususan, an'anaviy mikromoliya tashkilotlari qoshida islomiy darchalar faoliyat olib borishi, an'anaviy mikromoliya tashkilotlari islomiy mikromoliya tashkilotiga konversiya qilishi kabi huquqiy jihatlar qonunchilikda hozirda nazarda tutilmagan.

Shuningdek, 3536-sonli “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirish xizmatlarini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizom”ni tahlil qilish asosida, mazkur nizom bo‘yicha tavsiya qilingan o‘zgartirishlar jadvali ishlab chiqilgan. Ushbu o‘zgartirishlar “Salam” shartnomasining obyektini islomiy moliya standartlariga muvofiq tafsivlash, “Islomiy ijara” va “mudoraba” shartnomalarida tomonlardan biri shartnoma shartlariga rioya qilmaganligi natijasida obyekt nobud bo‘lishi, talafotga uchrashi holatlarida aybdor tomonga javobgarlik yuklash masalalariga taalluqlidir (9-jadval).

9-jadval

«Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi» nizomiga asosiy takliflar³¹

№	Havola	Nizomdagi matn/kamchilik	Taklif etilayotgan matn (qorada bo‘rtirilgan va tagiga chizilgan) va Asos (kursivda)
1	2-§. 50-band	50. Islomiy ijara obyektini nobud bo‘lgan taqdirda Islomiy ijara bo‘yicha shartnoma bekor qilinadi va keyingi islomiy ijara to‘lovlari to‘lanmaydi, bundan islomiy ijara obyektini mijozning ehtiyotsizligi yoki o‘z majburiyatlarini bajarishi jarayonida insofsiz harakatlari (harakatsizligi) natijasida nobud bo‘lishi holatlari mustasno.	50. Islomiy ijara obyektini nobud bo‘lgan taqdirda islomiy ijara bo‘yicha shartnoma bekor qilinadi va keyingi islomiy ijara to‘lovlari to‘lanmaydi, bundan islomiy ijara obyektini mijozning ehtiyotsizligi, <u>islomiy ijara shartnomasining shartlariga rioya etmaganligi</u> yoki o‘z majburiyatlarini bajarishi jarayonida insofsiz harakatlari (harakatsizligi) natijasida nobud bo‘lishi holatlari mustasno. <i>(Shartnoma shartlariga rioya etilmaslik javobgarligini mijozda ekanligini aniqlashtirish uchun)</i>
2	2-§. 58-band	58. Pul mablag‘lari (valyuta), oltin va kumush salam obyektini bo‘lishi mumkin emas.	58. Pul mablag‘lari (valyuta), oltin va kumush <u>va boshqa islomiy moliyalashtirishga oid standartlarda keltirilgan salam obyektini bo‘lishi ta‘qiqlangan obyektlar</u> salam obyektini bo‘lishi mumkin emas. <i>(Salam nafaqat valyuta, oltin va kumush, balki bir muayyan oziq-ovqat turlari va ma‘lum sifatlarga ega boshqa mahsulotlar ham salam obyektini bo‘lishi taqiqlanadi. Ushbu potensial kamchilikni olib tashlash uchun islomiy moliyalashtirishga oid standartlarga havola keltirish taklif qilindi)</i>
3	3-§. Salam xizmatini ko‘rsatish tartibi	- <i>Yangi matn qo‘shish</i> 56 va 57 bandlar orasida yangi band qo‘shish	<u>Salam obyektini shartnomada islomiy moliyalashtirishga oid standartlarga muvofiq ravishda yetarlicha tavsiflangan bo‘lishi lozim</u> <i>(Salam obyektini Fiqxul muamalat qoidalariga muvofiq “Salam” obyektini turidan kelib chiqqan holda sifati, jinsi, og‘irligi va boshqa xususiyatlari batafsil tavsiflangan bo‘lishi zarur. Salam bo‘yicha bo‘limda ushbu batafsil yondashuv xususida kamchilik ko‘rindi. Ushbu kamchilikni qoplash maqsadida islomiy moliyalashtirishga oid standartlarga havola keltirish maqsadga muvofiq)</i>
4	68 - band	Agar mijoz tomonidan amalga oshirilgan insofsiz harakatlari (harakatsizlik) natijasida mikromoliya tashkiloti zarar ko‘rgan taqdirda, mikromoliya tashkiloti ushbu zararni ta‘minot hisobidan qoplashi mumkin.	Agar mijoz tomonidan amalga oshirilgan insofsiz harakatlari (harakatsizlik) <u>yoki mikromoliya tashkiloti va mijoz o‘rtasida tuzilgan muzoraba shartnomasining shartlariga rioya etmaganligi</u> natijasida mikromoliya tashkiloti zarar ko‘rgan taqdirda, mikromoliya tashkiloti ushbu zararni ta‘minot hisobidan qoplashi mumkin. <i>(Shartnoma shartlariga rioya etilmaslik javobgarligini mijozda ekanligini aniqlashtirish uchun. Nizolarni oldini olishi uchun Muzoraba shartnomasida iqtisodiy munosabatlar yetarlicha tavsiflanishi maqsadga muvofiqdir)</i>

³¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Tadqiqotlarga ko‘ra islomiy bank, sug‘urta va kapital bozori sektorlari uchun qonunchilik asoslari va mos ravishda, normativ baza mamlakatda hali mavjud emasligi aniqlangan. Shu boisdan, normativ-huquqiy asoslarni joriy etish bo‘yicha uslubiy yondashuv tadqiq qilingan va taklif etilgan. Bundan tashqari, O‘zbekistonning Soliq kodeksida ham islomiy moliyaviy mahsulotlar bo‘yicha soliq rejimi ko‘zda tutilmagan. Natijada, islomiy moliya xizmatlarini taklif etish an‘anaviy moliyaviy xizmatlarni taklif etishga nisbatan qimmatroq ekanligi aniqlangan. Jahon amaliyotida soliq neytralligini soliq solish maqsadlari uchun islomiy moliyaviy shartnomalarni mos ravishda an‘anaviy moliyaviy shartnomalarga teng tarzda qabul qilish va ko‘rib chiqish orqali taqdim etish qo‘llanilgan. Shuningdek, ishlab chiqaruvchi – islomiy moliya instituti – mijoz zanjirida oraliqdagi mulk huquqining moliyalishtiruvchidan mijozga o‘tishi soliqqa solishdan ozod qilinishi taklif etilgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko‘ra mamlakatda ilg‘or Shariat boshqaruv tizimini joriy etish uchun mavjud normativ-huquqiy bazani AAOIFI GS-1, 10, 11, 12, 17 va IFSB-10 xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish tavsiya etilgan.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida islomiy moliya industriyasining qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish mavzusi doirasida olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi.

1. Islomiy moliya – islomiy moliyaviy mahsulotlarni taklif qiluvchi moliyaviy institutlarga nisbatan qo‘llaniluvchi Shariatdan (Islom huquqshunosligi) olingan muayyan qoidalar to‘plamiga bo‘ysunuvchi muqobil moliyaviy tizimdir. Boshqa iqtisodiy tizimlardan farqli ravishda islomiy iqtisodiyot va moliya tizimi tijoriy mazmunidan kelib chiqib tovar va pul o‘rtasidagi farqni belgilaydi. Shu boisdan, islomiy moliya tizimida pul “tovar” emas, balki “almashuv vositasi” yoki “qiymat o‘lchovi” deb e‘tirof etiladi.

2. Tadqiqot doirasida “infratuzilma” atamasini talqin qilishda xilma-xillik mavjudligi aniqlangan bo‘lib, “infratuzilma” tushunchasini uning vazifalariga ko‘ra ta‘riflash yondashuvini qo‘llash tavsiya etilgan. Shu boisdan, “infratuzilma” atamasini me‘yorlar (qoidalar), vositalar va chora-tadbirlar kabi vazifalari iqtisodiy subyektlarining iqtisodiy salohiyatini safarbar qilishdan iborat bo‘lgan barcha tegishli iqtisodiy taqdimotlar yig‘indisi sifatida belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3. Islomiy moliyaviy infratuzilmani islomiy moliya industriyasining barqaror faoliyat yuritishi va rivojlanishini ta‘minlovchi moddiy, personal va institutsional faoliyat turlari hamda ularni tashkil etish majmui sifatida ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Chunki, institutsional faoliyat (yoki infratuzilma) – normativ-huquqiy hujjatlardan, personal faoliyat – inson kapitalidan va moddiy faoliyat – asosiy kapital aktivlar hamda foydalardan tarkib topishi e‘tirof etiladi.

4. O‘tkazilgan ekspert so‘rovnomasi natijalariga ko‘ra islomiy moliya industriyasining qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasi hukumat qo‘llovi, qonunchilik bazasi, soliq rejimi, normativ baza, shariat boshqaruvi tizimi, moliyaviy xavfsizlik tizimi, islomiy likvidlikni boshqarish mexanizmlari, inson kapitali va bozor rivojlanganligi singari 10ta komponentdan iborat ekanligi aniqlandi. Shu boisdan,

ushbu komponentlarni shakllantirish va rivojlantirish orqali islomiy moliya industriyasining qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasini barpo etish muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish natijasida islomiy moliya industriyasining barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi islomiy moliya bo‘yicha aniq siyosat va strategiya hamda neytral soliq rejimining mavjud emasligi, an’anaviy moliya tashkilotlarida islomiy darchalar tashkil etish taqiqi, industriya manfaatlarini himoya qiluvchi vakolatli organ mavjud emasligi, tartibga soluvchi organ qoshida islomiy moliya bo‘yicha departament yoki bo‘lim mavjud emasligi, aholi xabardorligini oshirish bo‘yicha dasturlar mavjud emasligi singari to‘siq va kamchiliklar aniqlangan. O‘zbekistonda ushbu xorijiy mamlakatlar tajribalarini hisobga olgan holda islomiy moliya industriyasining infratuzilmasini shakllantirish zarur hisoblanadi.

6. O‘zbekistonda islomiy moliya tizimi salohiyatidan to‘liq foydalanish uchun islomiy moliya industriyasining qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasi komponentlarini har birini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha muvofiq strategiya va rejalashtirilgan chora-tadbirlar qabul qilish orqali islomiy moliya sektorlarini joriy etish, qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish bo‘yicha tizimli hamda ko‘p qirrali yondashuvni qo‘llash zarur.

7. O‘zbekistonda muvofiq byudjetga ega bo‘lgan islomiy moliya bo‘yicha strategiya, bosh reja yoki yo‘l xaritasi xujjatlarini ishlab chiqish va ushbu strategik hujjatlar ijrosini muvofiqlashtiruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmani rivojlantirishni nazorat qiluvchi va islomiy moliya institutlari manfaatlarini himoya etuvchi davlat organini belgilash tavsiya etiladi.

8. O‘tkazilgan ekonometrik tahlil natijalariga asoslanib, mamlakatda qonunchilik va boshqaruv asoslarini, xususan islomiy moliya industriyasining islomiy moliya standartlariga muvofiqlik asoslarini, takomillashtirish orqali islomiy moliya bozori hajmini oshirish maqsadga muvofiqdir.

9. Islomiy moliya sektorlarini normativ-huquqiy asos bilan ta’minlashda amaldagi qonunchilik hujjatlarini AAOIFI va IFSB xalqaro standartlariga muvofiq ravishda o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yondashuvini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Jumladan, shariat boshqaruv tizimini joriy etishda mavjud normativ-huquqiy bazani AAOIFI boshqaruv standartlari GS-1, 10, 11, 12, 17 va IFSB F10 xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish tavsiya etiladi.

10. Islomiy moliya industriyasi uchun qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmaning shakllantirilishi va rivojlantirilishi mamlakatda moliyaviy resurslarning “yashirin iqtisodiyot”dan chiqishi hamda Yaqin Sharq mamlakatlaridan investitsiyalarni jalb qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, islomiy moliya salohiyatidan mamlakatning iqtisodiy barqaror rivojlanishida to‘laqonli foydalanish imkoniyati yuzaga keladi deb hisoblaymiz.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № PhD.03/29.12.2022.I.157.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ НОРДИК
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЁРҚУЛОВ УМИДЖОН МУЗАФФАР ЎҒЛИ

**ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ПОДДЕРЖИВАЮЩЕЙ
ИНФРАСТРУКТУРЫ ИНДУСТРИИ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ В
РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за номером B2024.4.PhD/Iqt4710.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.nordicuniversity.org) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Салимов Бахтиёр Таджиевич**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Турсунов Анвар Султонович**
доктор экономических наук, доцент

Толипова Бахтигул Фархадовна
доктор философии по экономическим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация: **Международная Академия Исламоведения Узбекистана**

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2025 года в ____ часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней при № PhD.03/29.12.2022.I.157.01 по присуждению ученых степеней при Международном Университете Нордик. Адрес: 100143, г.Ташкент, ул. Себзор, дом 22А, корпус 2, 1 этаж. Тел.: (+99855) 508-44-00, Факс: (95) 505-33-00.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Международного университета Нордик (зарегистрировано под № ____). Адрес: 100143, г.Ташкент, ул. Себзор, дом 22А, корпус 2, 1 этаж. Тел.: (55) 508-44-00.

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года.

(Протокол реестра № ____ от « ____ » _____ 2025 года).

Ш.И. Мустафакулов

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, д.э.н., профессор

М.К.Абдуллаев

Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, PhD, профессор

Б.Т.Салимов

Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации: На сегодняшний день мировая тенденция экономического развития указывает на потребность в привлечении и мобилизации новых финансовых ресурсов. Будучи альтернативной финансовой системой, исламские финансы развиваются поразительно высокими темпами на мировой арене. С момента возникновения пять десятилетий тому назад, число исламских финансовых учреждений возросло с одного в 1975 году до 1679 в 2023³². К 2023 году глобальные исламские финансовые активы оцениваются в 4,9 триллиона долларов США. Актуальность и популярность исламских финансов даже за пределами мусульманских стран растут с каждым годом и правительства стремятся внедрить исламские финансы в финансовые ландшафты своих стран. Однако, несмотря на большой объём проделанной работы, в результате отсутствия соответствующей инфраструктуры для индустрии исламских финансов в некоторых странах, исламские финансы не смогли показать весь свой возможный потенциал в развитии национальных экономик. По этой причине, формирование поддерживающей инфраструктуры, прежде всего начинающаяся с представления соответствующей правовой основы и налогового режима, обретает важный характер для устойчивого развития рынка исламских финансов.

В мировом сообществе проводятся исследования по формированию соответствующей нормативно-правовой базы для исламских финансов, создания исламского рынка капитала, разработке и регулированию исламских финтех-продуктов, соответствию исламской банковской деятельности с целями исламской моральной экономики и повышению конкурентоспособности исламских финансовых секторов по сравнению с традиционными финансовыми секторами. Исламские финансы входят на новые рынки и к 2022 году 47 стран мира приняли по крайней мере один законодательный документ, связанный с исламскими финансами³³. Поэтому интерес рынков развивающихся стран к индустрии обуславливает проведение научных исследований по стимулированию роста исламского финансового рынка, создания инфраструктуры для исламских финансов в юрисдикциях, основанных на гражданском праве, и усовершенствования нормативно-правовых основ регулирования.

Узбекистан также начал уделять особое внимание развитию индустрии исламских финансов. В частности, во время выступления в парламенте 2020 года, Президент Узбекистана подчеркнул необходимость внедрения исламских финансов в финансовый ландшафт страны, отметив его потенциал для содействия экономическому росту и финансовой доступности³⁴. Данный призыв был вскоре поддержан несколькими министерствами на конференциях, где были отмечены перспективы исламских финансов и их соответствие с экономическим видением страны. Также, в стратегии «Узбекистан-2030», принятой

³² Dinar Standard. Отчет по состоянию Мировой Исламской Экономики 2023/2024.

³³ ICD&Refinitiv. 2022. Отчет «Индикатор развития Исламских финансов 2022».

³⁴ Kun.uz.2020 “It is high time to introduce Islamic financial services in Uzbekistan”.

Правительством Узбекистана в 2023 году, рекомендуется внедрить исламские банковские услуги и продукты как минимум в 3 коммерческих банках для расширения банковского сектора и повышения финансовой доступности в стране³⁵. Изучение подходов и опытов стран, учредивших исламские финансы в своих юрисдикциях показали, что индустрия исламских финансов может представить весь свой потенциал при наличии правильно выстроенной поддерживающей инфраструктуры, что требует системного подхода по введению, поддержанию и развитию индустрии. Актуальность вышеописанных феномена и возможностей по развитию новой индустрии обусловили выбор данной темы и определили цель диссертационного исследования.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № ПФ-158 «О Стратегии Узбекистан – 2030» от 11.09.2023 года, № ПФ-101 «Об очередных реформах по созданию условий для стабильного экономического роста путем улучшения предпринимательской среды и развития частного сектора» от 08.04.2022 года, и Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-4224 «О мерах по дальнейшему расширению и углублению партнерства с группой исламского банка развития и фондами Арабской координационной группы» от 05.03.2019 года, а также других нормативно-правовых актах в данной области.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с I направлением развития науки и технологий республики «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Фундаментально, экономические истоки исламских финансов исходят из Корана и Сунны³⁶. Первоначальные вклады в разработку концепций Исламской экономики были внесены такими Исламскими правоведами и мыслителями, как Абу Юсуф, Ибн Қаййюм, Ибн Хальдун³⁷.

Среди современных зарубежных мусульманских ученых, посвятивших труды исламской экономике и финансам, нужно отметить работы таких авторов, как Сайид Абул-Ала Мавдуди, Мухаммад Нежатуллах Сиддики, Мухаммада Тақи Усмани, Махмуд Амин Ал-Гамал, Масудул Алам Чоудри, Мухаммад Умар Чапра, Мухаммад Акрам Хан, Аббас Мирахор, Мехмет Асутай, Фараз Адам³⁸, которые проработали над формулировкой принципов исламской экономической модели.

³⁵ Указ Президента Республики Узбекистан о стратегии «Узбекистан – 2030».

³⁶ Магомедова Ю.Д. Развитие Исламских финансовых институтов в современных условиях. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова. 2017.

³⁷ Абу Юсуф Якуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж. — Пер. с арабского и коммент. А. Э. Шмидта; супракоммент. к пер. А. С. Боголюбова; подготовка к изд., вступит. ст. и указ. А. А. Хисматулина. — СПб.: «Петербургское Востоковедение», 2001. — XXXIII + 415 с. («Памятники культуры Востока», XVI); Ибн Хальдун. Ал-Мукаддима. Бейрут: Дар ал-фикр. Книга 1. Составление, перевод с арабского и примечания А.В. Смирнова. Историко-философский ежегодник 2007. М.: Наука, 2008, стр. 159-186.; Islahi, A. 1982. Economic thought of Ibn al-Qayyim. International Centre for Research in Islamic Economics, King Abdulaziz University, Jeddah, Saudi Arabia.

³⁸ Mawdudi S. A. First principles of Islamic economics. Book in brief. Centre of Islamic economics - International Islamic University Malaysia. 2020.; Muhammad Nejatullah Siddiqi. Issues in Islamic Banking Selected Papers. The Islamic

